



SHOALIYEVA Nargiza

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti
kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
nshoaliyeva74@mail.ru*

ISLOM RAHMAT DINIDIR

ИСЛАМ – РЕЛИГИЯ МИЛОСЕРДИЯ

ISLAM IS A RELIGION OF MERCY

Annotatsiya: Inson zoti qadimdan o'z Xudosini izlab yashagan, ya'ni dini haqiqatga erishish ko'prigi sifatida qabul qilgan. Ibtidoiy davrdan dinlarni sodda ko'rinishi qayd etilgan, inson rivojlanishi sari dinlar ko'rinishi ham o'zgarib, hozirgi kunda 10 mingdan ortiq din, mazhab va konfessiyalar dunyo bo'ylab mavjud, shunga qaramasdan hali hanuzgacha inson zoti haqiqat izlashda davom etmoqda. Islom dini mohiyatining asosi bo'lmush mehr va muhabbat haqida so'z boradi. Zero, e'tiqod va diniy amaliyot odamlarga noqulay paytlarda qulaylik berish va ibodat joylarida boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarini oshirish orqali psixologik farovonlikni oshirishidir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nafaqat keksalar, balki barcha yoshdagi odamlar, agar ular dindor bo'lsalar, baxtliroq, hayotlaridan mamnun bo'lishadi. Ko'rinishidan, dindorlik ham jismoniy salomatlikni yaxshilaydi va ba'zi tadqiqotlar, hatto dindorlar dindor bo'lmaganlarga qaraganda uzroqroq yashashini ko'rsatadi.

Maqolada islom dini mohiyati va ahamiyati yanada yaqqolroq ko'rinishi uchun, din va uning tarixi borasida ma'lumotlar va ta'riflar keltirildi.

Kalit so'zi: Din, inson, qadimgi, jahon, islom, ishq, payg'ambar.

Аннотация: С древних времен род человеческий жил в поисках своего Бога, то есть воспринимал религию как мост для достижения истины. С первобытных времен отмечался простой внешний вид религий, внешний вид религий также менялся с развитием человечества, и сегодня во всем мире существует более 10 000 религий, сект и конфессий, несмотря на это, род человеческий продолжает поиски истины. Здесь говорится о

любви и привязанности, которые являются основой сущности ислама. В конце концов, вера и религиозная практика способствуют психологическому благополучию, давая людям утешение в трудные времена и расширяя их социальные связи с другими людьми в местах отправления культа. Многие исследования показывают, что люди всех возрастов, а не только пожилые, счастливее и более удовлетворены своей жизнью, если они религиозны. Религиозность также улучшает физическое здоровье, а некоторые исследования даже показывают, что религиозные люди живут дольше, чем нерелигиозные.

Чтобы сделать более понятными суть и значение исламской религии, в статье даны сведения и определения о религии и ее истории.

Ключевые слова: религия, человек, древний, мир, ислам, любовь, пророк.

Annotation: Since ancient times, the human race has lived in search of its God, that is, it has perceived religion as a bridge to achieve truth. Since primitive times, the simple appearance of religions has been noted, the appearance of religions has also changed with the development of mankind, and today there are more than 10,000 religions, sects and denominations all over the world, despite this, the human race continues to search for truth. It talks about love and affection, which are the core essence of Islam. After all, faith and religious practice promote psychological well-being by providing people with comfort during difficult times and enhancing their social connections with others in places of worship. Many studies show that people of all ages, not just older people, are happier and more satisfied with their lives if they are religious. Religiosity also improves physical health, and some studies even show that religious people live longer than non-religious people.

To make the essence and meaning of the Islamic religion more clear, the article provides information and definitions about the religion and its history.

Key words: religion, man, ancient, world, Islam, love, prophet.

KIRISH

Islom dini haqida gapirishdan avval dunyodagi dinlarning vujudga kelishi tarixiga nazar solib, dunyo hamjamiyatida ularning o'rni haqida ozgina ma'lumot berilsa, islom dini mohiyati va ahamiyati yanada yaqqolroq ma'lum bo'ladi.

Bepoyon o'tmish kengligida, inson hayotning ma'no, mohiyati va mavhumini anglash yo'lida bo'lgan. Tunu-kun, tabiat sirlarini bilish istagi inson zehni mudom savol javoblar bilan ishg'ol

qilgan. Inson tafakkuri yetmagan savol-javoblarga to'qnashgan vaqtidan beri din tushunchasi vujudga kela boshlagan. Inson qiziquvchan va izlanuvchan mavjudot bo'lgani uchun, hayot va o'lim, yaxshi-yomon, mavjudligidan maqsadni bilmoqchi bo'lgan. Aynan din, insonni g'ayb olami, yaratguvchisi bilan bog'lay olgan ko'prik vazifasini bajarib kelgan.

ASOSIY QISM

Diniy qarashlarning ilk shakllari ibtidoiy mifologiya asosida rivojlangan. Ibtidoiy davrlarda atrof-muhitning g'ayritabiiy xususiyatlariga e'tiqodi mavjud bo'lgan. Shu munosabat bilan dindorlikning mavjudligi eng qadimgi sodda ko'rinishi ibtidoiy jamiyatlarda qayd etilgan. "Ibtidoiy din", "qadimgi din" iboralari narsalarga sig'inish – Fetişizm, hayvonlar va o'simliklarga – Totemizm, tabiiy narsalar ruhiga – Animizm, ruhlar va xudolar bilan aloqa qilish imkoniyatiga ishonish – Shamanizmni anglatadi.[1:146] Keyinroq Baynannahraynda odamlar Sumeriy, Bobiliy va Oshuriy xudolariga sig'ina boshlagan, qadimgi Misrda ham odamlar har xil xudolarga-Raxm, Osiris, Baizis va boshqalariga imon keltirishgan. Jahonning eng qadimgi va mashhur dinlaridan biri bu Induizm bo'lib, unda odamlar Vishna, Shiva, Addibi xudolariga sig'inishadi. Miloddan VI asr oldin Buddizm, Ajinizm vujudga keldigan, Buddizmga Sidarta Gutama (Siddhartha Gautama) yoki o'sha Budda tomonidan, Ajinizmga esa Mohabirar tomonidan asos solingan. Eron va Mavorounnahr xalqining qadimgi dini, o'z davrida juda ham mashhur bo'lib, hali hanuz izdoshlariga ega bo'lgan din, bu (Zoroastrizm) Zardushtiylik dini hisoblanadi. Bu qadimgi din Zartusht tomonidan asos solingan, bunda odamlar Ahuromazda xudosiga sig'inishadi. Osiyoning sharqida boshqa dinlar ham vujudga kelgan, ulardan Konfusiyaizm, Toizm va Shintoni misol qilib aytish mumkin. Afrikaning g'arbidagi qadimgi dinlardan biri Budu dini bo'lib, oxirgi yillar janubiy Amerikada ham tarqalgan. Bu dinlar bugungi kunga qadar ma'lum bir insonlarning savollariga javob bo'la olgan, ishonchlarini qozonib, inson ruhiyatini qoniqtirib, jamiyatni boshqarishda ko'maklashib kelmoqda.

Freyd nuqtai nazaridan, diniy e'tiqodlarning kelib chiqishini insonning ezilgan ruhiyatidan izlash kerak, Dyurkgeym nuqtai nazaridan esa, din ijtimoiy qurilish va jamiyat taqozosidir.

Evolutsionist biolog Richard Dokins, dinni inson evolyutsiyasi (inson takomili) asosida o'rganib chiqdi va «Xudo illyuziya» kitobida shunday dedi: "Agar nevrologlar miyada xudoga ishonish bilan bog'liq markaz topsalar, men kabi darvinistlar izlanishda davom etib, nima uchun tabiat bunday markazni vujudga keltirganini aniqlashga harakat qilar edik." [2:15] Ba'zi olimlar diniy e'tiqodlar evolyutsiya davrida paydo bo'lgan va bu inson zotini omon qolishiga yordam bergan, deb hisoblashadi. Ba'zilar dinlarning mavjudligi sababini, bir guruh odamlarning o'z aql-zakovati va donoligi bilan hali izoh topa olmagan hodisalarni oqlashga urinishlari, deb hisoblaydi.

Din - bu ramzlar yaratish orqali odamlarni ma'naviy qadriyatlarga, ba'zan esa insoniy qadriyatlarga bog'laydigan madaniy tizimlar, e'tiqodlar va dunyoqarashlar to'plamidir, deyilar. Aksariyat dinlar o'zlarining an'analari, naqshlari, ramzlari va muqaddas hikoyalarini tasvirlash orqali hayotga ma'no berish, inson va koinotning tabiati haqidagi g'oyalardan ko'ra axloqiy tamoyillarni, dinni yoki yaxshiroq hayot tarzini taqdim etishni xohlashadi. Odamlar o'zlarini himoya qilish uchun, shuningdek, ma'lum darajada muhtojlik tufayli, marosimlar, odatlar, ibodatlar, duolar va qurbonliklarni qabul qiladilar, ularning to'plami din deb ataladi. [3:218] Din haqida ta'riflar juda ko'p. Tabiiyki, ilmiy va tarixiy nuqtai nazardan berilgan ta'riflar, ruhoniylar (din vakillari) ta'rifidan keskin farq qiladi.

Dunyodagi eng yirik dinlar bu Ibrohimiy dinlar bo'lib, ularning barchasini ildizi birdir. Ularning hammasi Yaqin Sharq mintaqasidan kelib chiqib, Iudaizm, Nasroniylik va Islom dinlarini o'z ichiga oladi (bularndan avval Zardushtiylik dini ham shu mintaqada vujudga kelgan). Ibrohimiy dinlar, asrlar sari dunyo hamjamiyatida o'zining nufuzi va qudratiga ega bo'lgan dinlar hisoblanadi. Yahudiylik, Ibrohimiy dinlarning eng qadimgisi bo'lib, odamlar Tavrot kitobi ta'limi asosida yakkaxudolikka sig'inishadi. Yahudiylikdan so'ng Nasroniylik diniga, Iso Masih (milodiy yilning boshlanishi uning tug'ilgan kunidan hisoblanadi) asos solgan va Injil ularning muqaddas kitobidir. XVII asrda Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.) tomonidan Islom diniga asos solindi va musulmonlar Qur'on kitobini Alloh so'zi deb ishonishadi. Nasroniy va Islom dini hozirgi kunda dunyo bo'yicha eng qudratli va tarafdorlari ko'p bo'lgan din hisoblanadi.

Dunyodagi boshqa yirik dinlar qatoriga Buddizm, Induizm va Konfutsiylik kiradi. Moniyizm, quyoshga sig'inish va boshqa ko'plab qadimgi dinlar va e'tiqodlar hali hanuzgacha mavjud. Demografik tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'yicha 10 mingdan ortiq din, mazhab va konfessiyalar bor bo'lib, 32% dunyo aholisi nasroniy diniga mansub va jahonning 157 ta mamlakatida yashovchi ko'pchilik aholini tashkil etadi, Islom dini vakillari 23% bo'lib, ular 49 ta mamlakatning aksariyat aholisini tashkil etadi. Induizm 15% (Hinduston, Nepal, Mavrigi) mamlakatlarida, Buddizm 7% (Butan, Birma, Kambodja, Laos, Mongoliya, Shri Lanka, Tailand) mamlakatlarida va Iudaizm 0,2% (Isroil) mamlakatida aholining ko'pchilik qatlamini tashkil etadi. 16% dunyo aholisi hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydilar, lekin xudoga ishonadilar. Binobarin, dunyoda dinsiz odamlar va mamlakatlar ham kam emas. Xitoy, Chexiya, Estoniya, Gonkong, Yaponiya, Vetnam, Shimoliy Koreya va bir nechta Yevropa mamlakatlari dinsiz mamlakatlar statusiga kiradi va bu mamlakatlarda yashovchi aholining aksariyat qismi o'zlarini dinsiz odamlar qatorida hisoblaydilar. [4] Shuningdek, bir nechta dinlarga sig'inadigan va umuman hech qanaqa dinni tan olmaydigan, yoxud xudoga ishonmaydigan (ateistlar) odamlar ham bugungi kunda dunyo bo'ylab yashab kelmoqdalar.

Yangi dinlar qatoriga kiradigan dinlardan biri bu Baho'iy dini bo'lib, XIX asrda Eronda Bahoullloh tomonidan asos solingan. Shu asrda Amerikada Murmonizm diniga Jozef Smit tomonidan asos solindi va XX asrda Ilyan Hovard Sayntologiya diniga asos soldi. Ko'rib turganingizdek, inson zoti hali hanuz haqiqat izlashda davom etmoqda.

Har qanday dinning asosi avvalambor bir-biridan ajratib bo'lmaydigan do'stlik va mehr-muhabbat tushunchalari bilan bog'liqligi, yana bir bor inson hamjamiyatida avvalo uning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Shuning uchun har qanday dindor kishini boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlardan biri, bu birinchidan, uning halimligi, mehr-muhabbati va bag'rikengligi bo'lishi kerak. Zero, e'tiqod va diniy amaliyot odamlarga noqulay paytlarda qulaylik berish va ibodat joylarida boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarini oshirish orqali psixologik farovonlikni oshirishidir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nafaqat keksalar, balki barcha yoshdagi odamlar, agar ular

dindor bo'lsalar, baxtliroq, hayotlaridan mamnun bo'lishadi. Ko'rinishidan, dindorlik ham jismoniy salomatlikni yaxshilaydi va ba'zi tadqiqotlar, hatto dindorlar dindor bo'lmaganlarga qaraganda uzoqroq yashashini ko'rsatadi. [5:10]

Shu jumladan islom dini vakillari, ya'ni musulmonlar - Alloh bandalari, Muhammad (s.a.v.) ummatlari, payg'ambariga xos va mos inson bo'lishini, har tomonlama ilmi va odob-axloqda yuksak xulq sohibi bo'lishini muqaddas kitobi Qur'onda va hadislarda Payg'ambar (s.a.v.) namunasida belgilab berilgan. Qur'onda inson maxluqot ashrofi sifatida ta'riflansada, ayni paytda zaif, isyonkor va xato qiluvchi sifatida ham keltirilgan.

Zotan, bashariyatning Ibrohimiy dinlarida oxirgi din bo'lmish Islom dini – mehr-muhabbat, do'stlik va bag'rikenglik dinidir. Islom dini mohiyati sevgi, ishq, insondo'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, birlashish, ya'ni tavhidga, birlikka erishishdir. Bu birlik avvalo Alloh yo'lida va Alloh roziligi, qolaversa o'zlikni anglashga erishish uchun uchundir. "Sen tomchi eding, dengizga qo'shilsang dengizsan" deydi Mavlaviya tariqati asoschisi Mavlono Rumiy. Inson qachon birlasha oladi!? Qachonki qalbida rahmat bo'lsa, Qur'on Islomning buyuk payg'ambarini (s.a.v.) butun dunyoga rahmat sifatida tanitadi:

«و ما أَرْسَلْنَاكَ إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ»

Biz seni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik.
Anbiyo surasi, 107 oyat.

Darhaqiqat, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) mo'jizalaridan biri shu qalblardagi rahmat, ishqni, imonni, nurni boshqalar bilan baham ko'ra olganlaridir, bo'lmasa o'sha davrdagi tarqoq va johil Quraysh xalqini birlashtirish va ma'rifat yo'liga hidoyat qilish amri mahol edi, qolaversa, to bugungi kunga qadar islom diniga imon keltirayotganlar safi ko'payib bormoqda. Biz tarixdan yaxshi bilamizki, Payg'ambar (s.a.v.) hatto dushmanlariga qanchalar marhamat ko'rsatganlar. Ularning har bir narsaga o'ziga xos qarashlari bo'lgan. Ular sevgi va muhabbat timsoli edi. Uhud tog'i yonidan o'tganlarida muhabbat to'la nigohi bilan Uhud tog'iga xitob qilib:

«جِبِّلْ يُحِبُّنَا وَ نُحِبُّهُ»

Bizni sevadigan tog', biz ham uni sevamiz
[6:24] degan so'zlari tagida qancha ma'no bor. Payg'ambar (s.a.v.) sevgisi va muhabbati tog'u toshga foyda keltirgan inson edi. Albatta, Rasulullohning muhabbati va mehri maqsadsiz

hamda asossiz emas edi. Ularning barcha xatti-harakatlari hikmat va aniq maqsad asosida edi. Uning ko‘rinishi, so‘zlari, sevgisi va nafrati hammasi Xudo uchun edi. Balki uning predmet va tabiatga bo‘lgan muhabbati bular ham Xudoning ijodi ekanligi ma’nosida muhabbatga loyiq ekanligidir, yoki bu narsalar va jismlar unga Xudoni eslatadi degan ma’noda. Marhum Mulla Ahmad Narog‘iy o‘zining “Me’roj as-saada” kitobida bu masalaga ishora qilib, shunday deydi: ba’zida inson biror narsani Alloh taoloning ijodi va unga nisbat bergani uchun yaxshi ko‘radi. Ishq kuychisi Mavlono Rumiyni “Men olam ichra, olam mening ichimdadir” degan so‘zlari ham Qur’oning “Men jon tomiringdan yaqinroqman” degan oyatiga ishora bo‘lsada, Alloh karami cheksizligini eslatib, uning rahmat va marhamati borligida joriy ekanligini, har bir inson qalbida mavjudligini, uning mehri va muhabbatidan olam charog‘on, tunlar jozibali ekanligini eslatadi. Shayx Sa’diy aytadi: “*Be jahon xurram az onam ke jahon xurram az ust/ Oshiqam bar hame olam ke hame olam az ust*”. Bu olamda xursand va shodmon, chunki bu jahon xursandligini, saodatini u yaratgandir, bu olam va maxluqiga oshiqman, chunki buning hammasini xudo hal qilgan.

XULOSA

Ko‘rib turganimizdek, Islom dini mohiyatidan ogoh odam, mayda chuydalar, atributlar, ko‘rinishlar ketidan bormaydi, dunyoga keng qaraydi. Avvalo muhabbatni o‘zidan izlaydi, tarqatadi, bor mavjudot bilan baham ko‘radi. “Alloh go‘zaldir, go‘zallikni sevadi”

Bu biz uchun ajoyib saboq; dinning asosi bo‘lgan ishq va muhabbatni Payg‘ambar (s.a.v.) iznlari bilan hayotimizda qo‘llashdir. Jamiyatda ham, uyda ham, oilada ham, do‘stlarimiz orasida ham tushunarsiz narsalarni muhokama qilishdan ko‘ra, aqlimiz yetmaydigan narsalarni bir chetga surib, bir-birimizga mehr va muhabbat bilan munosabatda bo‘lganimiz ma’qul va maqbuldir. “Tabassum va mehrli ko‘z qarashi bilan har qanday tugunlar va muammolar hal bo‘lsa, shuning o‘zi ibodat deb hisoblangan Imom Sajjad (a.s.):

نَظَرُ الْمُؤْمِنِ فِي وَجْهِ أَخِيهِ الْمُؤْمِنِ لِلْمَوَدَّةِ وَالْمَحَبَّةِ لَهُ عِبَادَةٌ

Mo‘minning imonli birodarining yuziga mehr bilan qarashi ibodatdir[7:622]

Ha, peshvosining amaliy xulq-atvori negizi ishqqa asoslangan din tarafdorlari, ehtimol oqilona, oshiqona va orifona yashashi kerak...

ADABIYOTLAR:

1. Кирсанова Ольга Тимофеевна. 2007, Первобытные верования и мифология // Вестник Ростовского Государственного Экономического Университета (РИНХ): журнал. С. 146
2. Ричард Докинз. Бог как иллюзия = The God Delusion / Переводчик: Н. Смелкова. 2012 – М.: КоЛибри, Азбука-Аттикус, 560 с.— ISBN 978-5-389-00334-7.
3. The knowledgebook: everything you need to know to get by in the 21st Century. 2009 Washington, D.C. National Geographic. p.218
4. <https://www.golosameriki.com/a/religion/1570534.html>
5. Sociological Perspectives on Religion. Publishing Services80-40-6102 . Retrieved 2021-09-05
6. مطهری، مرتضی؛ جاذبه و دافعه علی(ع)، تهران، صدرا، 1373، چاپ شانزدهم، ص24.
7. ابن شعبه حرانی؛ تحف العقول، احمد جنتی، تهران، شرکت چاپ و نشر بین الملل، 1387، ص622، حدیث 31